



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№9**

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB<sup>®</sup>  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2025**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 222 sahifa.*

*E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyeich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

#### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi

#### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilkhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 Makroiqtisodiyot  
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 Ekonometrika va statistika  
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 Marketing  
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 Menejment  
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

#### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                                     |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri .....                                                               | 14  |
| <b>Abdulaziz Madjidov</b>                                                                                                                                                           |     |
| Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli .....                                                                                               | 22  |
| <b>Imamova Nilufar Asamutdinovna</b>                                                                                                                                                |     |
| Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....                                                                                 | 29  |
| <b>Xidirov Sherzod Olimovich</b>                                                                                                                                                    |     |
| O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari .....                                                                         | 34  |
| <b>Irgashev Anvar Farxodovich</b>                                                                                                                                                   |     |
| Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi .....                                                                                             | 39  |
| <b>Umarov Bexzod Batirovich</b>                                                                                                                                                     |     |
| Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....                                                                                                        | 43  |
| <b>Sheraliyev Axror Sodiqovich</b>                                                                                                                                                  |     |
| O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlarini .....                  | 48  |
| <b>Roziqov Behzod Bahrom o'g'li</b>                                                                                                                                                 |     |
| Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi .....                                                                                             | 54  |
| <b>Abdullayeva Matluba Nematovna</b>                                                                                                                                                |     |
| Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане .....                                              | 59  |
| <b>Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов</b>                                                                                                                                         |     |
| Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari .....                                                                       | 68  |
| <b>Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich</b>                                                                                                           |     |
| Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari .....                                                                                                   | 75  |
| <b>Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi</b>                                                                                                    |     |
| Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari .....                                                                                       | 89  |
| <b>Xaitov Shuxrat Sharipboyevich</b>                                                                                                                                                |     |
| Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi..... | 94  |
| <b>Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna</b>                                                                                                                                         |     |
| Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida .....                                                                                                 | 98  |
| <b>Narziyev Umidjon Baxrillayevich</b>                                                                                                                                              |     |
| Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....                                                                                                       | 105 |
| <b>Marufhanov Davron Xasanovich</b>                                                                                                                                                 |     |
| Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....                                                                                   | 109 |
| <b>Кушакова Мамура Наримановна</b>                                                                                                                                                  |     |
| Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний .....                                                                               | 115 |
| <b>Шарапова Гулчехра Рустамовна</b>                                                                                                                                                 |     |
| Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari .....                                                             | 120 |
| <b>Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna</b>                                                                                                                                              |     |
| Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....                                                                                                                            | 124 |
| <b>Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich</b>                                                                                                                                             |     |



|                                                                                                                             |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....                    | 131 |
| Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich                                                                                           |     |
| Ko'chmas mulk qiymatini baholash va uning ekonometrik tahlili .....                                                         | 135 |
| Jaloliddinova Mohira Alisher qizi                                                                                           |     |
| Современные тенденции и вызовы бюджетно-макрэкономической политики в Узбекистане .....                                      | 142 |
| Хазраткулова Лола Нармуминовна                                                                                              |     |
| Intellectual mulkda iqtisodiy mohiyat, mazmun hamda huquqiy jihat uyg'unligi .....                                          | 148 |
| N.D.Maxmudova                                                                                                               |     |
| Axborot texnologiyalari asosida ta'limda loyiha boshqaruvida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlari .....     | 152 |
| Xodjiyeva Durdona Abdurasolovna                                                                                             |     |
| Концепция "Зеленого учета" и его значение для экономического развития.....                                                  | 157 |
| Умарова Зулайхо Турсуновна                                                                                                  |     |
| Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning joriy holati tahlili .....                       | 166 |
| Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi                                                                                           |     |
| O'zbekistonda yoshlar tashkiloti faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish bosqichlari .....        | 172 |
| Usmonov Adxamjon A'zamjonovich                                                                                              |     |
| O'zbekiston Respublikasi maxsus iqtisodiy zonalar investitsion holatini hududlar kesimida tahlili.....                      | 178 |
| Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li                                                                                   |     |
| Kichik biznes va o'rta biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta'minlash.....                                   | 184 |
| Ahmedov Oybek Turgunpulatovich, Nurqulov Nurbek Sirojiddin o'g'li                                                           |     |
| Fiskal siyosat instrumentlari orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va legallashtirish metodologiyasi.....             | 189 |
| Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi                                                                                            |     |
| Fond bozorida savdo strategiyasi va uni amalga oshirishga yo'nalishlari.....                                                | 192 |
| Soliyev Istam Ixtiyorovich                                                                                                  |     |
| Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari .....                                                | 197 |
| Yuldasheva Kamola Miraliyevna                                                                                               |     |
| Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat boshqaruvi tizimining isloh qilinishi: Tajriba va istiqbollar.....              | 202 |
| Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich                                                                                   |     |
| Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti.....                                     | 209 |
| Qosimova Lola Sultanovna                                                                                                    |     |
| Sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar..... | 217 |
| Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi                                                                                            |     |



# SANOAT MAHSULOTLARI EKSPORTIDA LOGISTIKA ZANJIRINING UZLUKSIZLIGINI TA'MINLASH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR



**Kurbonova Ma'mura Abdugarim qizi**

mamurakurbonova7@gmail.com

ORCID: 0009-0001-1963-5255

**Annotatsiya:** Maqolada sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash masalasi nazariy va amaliy jihatdan o'rganilgan. Unda transport va bojxona infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, risklarni boshqarish, multimodal tashish tizimidan foydalanish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining samaradorligi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** logistika zanjiri, sanoat mahsulotlari eksporti, raqamlashtirish, transport infratuzilmasi, risklarni boshqarish.

**Abstract:** The article explores the theoretical and practical aspects of ensuring the continuity of the logistics chain in the export of industrial products. It highlights the importance of modernizing transport and customs infrastructure, introducing digital technologies, and adapting international practices to national conditions. The analysis also covers risk management, the application of multimodal transport systems, and the effectiveness of public-private partnership mechanisms.

**Key words:** logistics chain, industrial product export, digitalization, transport infrastructure, risk management.

**Аннотация:** В статье рассмотрены теоретические и практические аспекты обеспечения бесперебойности логистической цепи при экспорте промышленной продукции. Освещено значение модернизации транспортной и таможенной инфраструктуры, внедрения цифровых технологий и адаптации международного опыта к национальным условиям. Также проанализированы управление рисками, использование мультимодальных перевозок и эффективность механизмов государственно-частного партнерства.

**Ключевые слова:** логистическая цепь, экспорт промышленной продукции, цифровизация, транспортная инфраструктура, управление рисками.

## KIRISH

Globalizatsiya va xalqaro savdo aloqalarining kengayishi sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash masalasini yanada dolzarb qilmoqda. Eksport jarayonlari samaradorligi nafaqat ishlab chiqaruvchi korxonalar daromadiga, balki mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni chet el bozorlariga yetkazib berishda transport, saqlash, bojxona va boshqa xizmatlar o'rtasida uyg'unlikka erishish bugungi kunda eng muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi.

Logistika zanjirining uzluksizligi eksport faoliyatini barqaror rivojlantirishning asosiy omillaridan biri bo'lib, bu jarayon mahsulotlarni yetkazib berishda vaqt va xarajatlarni kamaytiradi, yetkazib berish sifati va tezligini oshiradi. Shu jihatdan, samarali boshqaruv mexanizmlari, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xalqaro standartlarga moslashish sanoat mahsulotlari eksportida katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston sanoat mahsulotlari eksportini kengaytirish yo'lida logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, transport koridorlarini rivojlantirish va bojxona jarayonlarini soddalashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu boradagi chora-tadbirlar xalqaro tajriba bilan uyg'unlashib, milliy iqtisodiyotning tashqi bozorlardagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.





## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash masalasi xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. M. Porter o'zining "Competitive Advantage" asarida logistika tizimi kompaniyalarning raqobatdosh ustunligini shakllantirishda asosiy bo'g'inlardan biri ekanini ta'kidlab, uni samarali tashkil etish orqali xarajatlarni kamaytirish va bozorda ustunlikka erishish mumkinligini ko'rsatgan.

K. Christopherning tadqiqotlari ham logistikani strategik boshqaruvning muhim qismi sifatida talqin etadi. Uning fikricha, ta'minot zanjirida uzluksizlikni ta'minlash nafaqat transport va saqlash tizimiga, balki ishlab chiqarish va sotuvni muvofiqlashtirishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro tajribaga murojaat qilar ekanmiz, Ballou tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda eksport jarayonida transport yo'laklarining diversifikatsiyasi va tashqi bozorlarga chiqishda multimodal transport tizimidan foydalanishning ustunliklari yoritilgan. U, ayniqsa, yuk oqimlarini samarali rejalashtirish uzluksizlikni ta'minlashning eng muhim sharti ekanini alohida qayd etadi.

O'zbekiston olimlari orasida E. Egamberdiyev logistika tizimining milliy iqtisodiyotdagi o'rni haqida tadqiqotlar olib borgan. U mamlakat eksport salohiyatini oshirishda bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, O. Fayzullayev o'z ilmiy izlanishlarida sanoat mahsulotlari eksportida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali logistika jarayonlaridagi uzilishlarni kamaytirish mumkinligini ta'kidlagan.

Yaqinda John J. Coyle va hamkorlari tomonidan chop etilgan "Supply Chain Management" kitobida global miqyosda logistika uzluksizligini ta'minlash uchun risklarni boshqarish, zaxira rejalarni ishlab chiqish va raqamli monitoring tizimlaridan foydalanish amaliy mexanizmlari keng tahlil qilingan. Bu yondashuv O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, mahalliy sharoitda qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatib beradi.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash strategiyalari kompleks yondashuvni talab qiladi. Unda nazariy konsepsiyalar bilan bir qatorda transport infratuzilmasi, bojxona siyosati, raqamlashtirish jarayonlari va xalqaro tajriba uyg'unlashtirilishi zarur.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy maqola yozishda ma'lumotlar asosan rasmiy statistik to'plamlar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va milliy iqtisodiy ko'rsatkichlardan olindi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash, iqtisodiy-statistik tahlil hamda kontent tahlil usullari orqali qayta ishlanib, nazariy konsepsiyalar bilan uyg'unlashtirildi va sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash imkoniyatlari baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash bugungi kunda xalqaro savdo jarayonlarining muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot ishlab chiqarish jarayoni yakuniy bosqich bo'lib qolmay, balki uni iste'molchiga o'z vaqtida va sifatli yetkazib berish ham iqtisodiy samaradorlikning asosiy mezoniga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, logistika tizimining uzluksiz ishlashi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiruvchi strategik omil hisoblanadi.

Logistika zanjiri – bu ishlab chiqaruvchi, vositachi, tashuvchi va yakuniy iste'molchi o'rtasidagi murakkab aloqalar tizimi bo'lib, uning har bir bosqichida uzilishlar yuzaga kelsa, eksport samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining barqarorligi va izchilligi iqtisodiy rivojlanishning zaruriy sharti sifatida ko'rilmoqda.

Logistika zanjirining uzluksizligi haqida gapirganda, avvalo qiymat zanjiri nazariyasiga murojaat qilish zarur. M. Porter ishlab chiqqan ushbu konsepsiyaga ko'ra, mahsulotning bozor qiymatini belgilashda nafaqat ishlab chiqarish xarajatlari, balki uning transport, saqlash, yetkazib berish kabi xizmatlar bilan uyg'unligi ham muhimdir. Agar zanjirning biror bo'g'ini izdan chiqsa, butun tizim samaradorligi pasayadi.

Shuningdek, logistika nazariyasida "supply chain management" tushunchasi asosiy o'rin egallaydi. Bu tushuncha ishlab chiqarishdan tortib iste'molchiga qadar bo'lgan barcha jarayonlarni yagona tizim sifatida boshqarishni anglatadi. Demak, eksport faoliyatida ham faqat tashish yoki bojxona jarayonlariga emas, balki butun logistik tizimning uyg'unligiga e'tibor qaratilishi lozim.

Eksport jarayonida eng muhim omillardan biri bu transport infratuzilmasi hisoblanadi. Samarali transport tizimi mahsulotlarni o'z vaqtida yetkazib berish imkonini beradi, xarajatlarni kamaytiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi. Masalan, dengiz portlariga ega bo'lmagan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston uchun tranzit koridorlari orqali chiqish imkoniyatlari strategik ahamiyatga ega. Bu esa nafaqat milliy, balki mintaqaviy hamkorlikni ham talab qiladi.





Bojxona tartiblarining soddalashtirilishi ham logistika zanjirida muhim o'rin tutadi. Xalqaro tajribada "yagona oyna" tamoyili keng qo'llanilmoqda, bu esa eksport qiluvchi korxonalar uchun vaqt va resurslarni tejash imkonini yaratadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali bojxona jarayonlarining elektron shaklga o'tkazilishi logistika uzluksizligini mustahkamlovchi muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar logistikani butunlay yangi bosqichga olib chiqmoqda. Sun'iy intellekt, IoT, blockchain kabi texnologiyalar mahsulot harakatini real vaqt rejimida kuzatish, zaxiralarni boshqarish va yetkazib berish xavfsizligini ta'minlash imkonini bermoqda. Masalan, blockchain texnologiyasi hujjatlar almashinuvida shaffoflikni ta'minlab, korrupsiya va kechikishlarni kamaytirishi mumkin. IoT sensorlari esa mahsulotlarning transport jarayonida sifatini nazorat qilish imkoniyatini beradi.

Raqamli transformatsiya logistika tizimining uzluksizligini ta'minlashda nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki xalqaro savdo talablariga moslashishni ham tezlashtiradi. Shu bois, eksport faoliyatida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish strategik zaruratga aylanmoqda.

Logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlashda risklarni boshqarish masalasi alohida e'tiborga loyiq. Tabiiy ofatlar, siyosiy beqarorlik, pandemiyalar yoki transport infratuzilmasidagi muammolar logistika uzluksizligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli risklarni diversifikatsiya qilish, ya'ni bir nechta transport yo'laklaridan foydalanish, strategik zaxiralarni shakllantirish va sug'urta mexanizmlarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Barqarorlik tamoyillari ham eksport logistikasi uchun muhimdir. Atrof-muhitni muhofaza qilish talablari, "yashil logistika" konsepsiyasi bugungi kunda xalqaro bozorlarda keng qo'llanilmoqda. Bu esa ekologik jihatdan toza transport vositalaridan foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan saqlash tizimlarini joriy etish kabi amaliy choralarni nazarda tutadi.

O'zbekiston eksporti tarkibi bo'yicha 2024-yil yakuniy natijalari mamlakat tashqi savdosida barqarorlik va ma'lum o'zgarishlarni ko'rsatmoqda. Umumiy eksport hajmi 2023-yildagi 24,9 mlrd. dollardan 2024-yilda 26,9 mlrd. dollarga yetib, 8,4 foiz o'sishga erishdi. Bu holat umumiy hajmda ijobiy dinamikani namoyon etgan bo'lsa-da, ayrim tarmoqlar kesimida turlicha o'zgarishlar kuzatildi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi eksport tarkibi (2023–2024-yillar)<sup>1</sup>

| XSST tarkibi                                 | 2023-yil (mln. AQSH doll.) | 2024-yil (mln. AQSH doll.) | O'sish sur'ati (%) | Umumiy hajmga nisbatan (%) 2023 | Umumiy hajmga nisbatan (%) 2024 |
|----------------------------------------------|----------------------------|----------------------------|--------------------|---------------------------------|---------------------------------|
| Jami                                         | 24 869,5                   | 26 948,2                   | 108,4              | 100,0                           | 100,0                           |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar   | 1 777,6                    | 2 175,2                    | 122,4              | 7,1                             | 8,1                             |
| Ichimliklar va tamaki                        | 123,0                      | 138,5                      | 112,6              | 0,5                             | 0,5                             |
| Nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari) | 321,4                      | 320,6                      | 99,8               | 1,3                             | 1,2                             |
| Mineral yoqilg'i va moylar                   | 940,6                      | 1 315,0                    | 139,8              | 3,8                             | 4,9                             |
| Hayvon va o'simlik moylari                   | 14,2                       | 43,5                       | 306,9              | 0,1                             | 0,2                             |
| Kimyoviy vositalar                           | 1 307,4                    | 1 687,3                    | 129,1              | 5,3                             | 6,3                             |
| Sanoat tovarlari                             | 4 051,5                    | 4 200,7                    | 103,7              | 16,3                            | 15,6                            |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari     | 1 305,2                    | 1 202,2                    | 92,1               | 5,2                             | 4,5                             |
| Turli xil tayyor buyumlar                    | 1 195,6                    | 1 105,7                    | 92,5               | 4,8                             | 4,1                             |
| Boshqa tovarlar                              | 8 192,6                    | 7 555,1                    | 92,2               | 32,9                            | 28,0                            |
| Nomonetar oltin                              | 8 153,8                    | 7 480,6                    | 91,7               | 32,8                            | 27,8                            |
| Xizmatlar                                    | 5 640,4                    | 7 204,4                    | 127,7              | 22,7                            | 26,7                            |

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar eksporti 1,77 mlrd. dollardan 2,17 mlrd. dollarga oshib, 22,4 foizlik yuqori o'sishni qayd etdi. Bu ko'rsatkich umumiy hajmda 7,1 foizdan 8,1 foizgacha ko'tarilgan bo'lib, agrar sektorning eksportdagi ulushi mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Ichimliklar va tamaki mahsulotlari hajmi ham bir oz o'sib, 138,5 mln. dollarga yetgan, biroq umumiy ulushi 0,5 foiz darajasida deyarli o'zgarmadi.

Sanoat mahsulotlari segmentida turlicha tendensiyalar kuzatildi. Masalan, mineral yoqilg'i va moy mahsulotlari eksporti 940,6 mln. dollardan 1,3 mlrd. dollarga oshib, 39,8 foizga ko'paydi. Bu esa energiya

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги статистика агентлиги Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати (2024 йил январь-декабрь) - Тошкент – 2025 й. // Stat.uz



resurslariga talab yuqoriligini aks ettiradi. Shu bilan birga, sanoat tovarlari hajmi 4,05 mlrd. dollardan 4,2 mlrd. dollarga chiqib, faqat 3,7 foizlik nisbatan past o'sishni qayd etdi va umumiy ulushi 16,3 foizdan 15,6 foizgacha kamaydi. Bu esa ishlab chiqarish sanoatining eksportdagi nisbiy o'rnida sekinlashuv borligini anglatadi.

Mashina va transport uskunalari eksporti 1,3 mlrd. dollardan 1,2 mlrd. dollarga tushib, 8 foizdan ortiq qisqardi. Bu tendensiya texnologik mahsulotlar eksportidagi muammolarni ko'rsatmoqda. Turli tayyor buyumlar ham 1,1 mlrd. dollarga tushib, 92,5 foiz darajada kamayish qayd etdi. Aksincha, kimyoviy mahsulotlar 1,3 mlrd. dollardan 1,68 mlrd. dollarga oshib, 29,1 foiz o'sdi va ulushi 6,3 foizga chiqdi.

Eng yirik tovar guruhi sifatida oltin eksporti saqlanib qolmoqda. 2023-yilda 8,15 mlrd. dollar bo'lgan oltin eksporti 2024-yilda 7,48 mlrd. dollarga tushib, 8,3 foizga kamaydi. Shunga qaramay, u umumiy eksportning qariyb 28 foizini tashkil etib, asosiy ustuvorlikni saqlab turibdi.

Xizmatlar eksporti esa eng yuqori o'sish sur'atini ko'rsatdi. 2023-yildagi 5,64 mlrd. dollardan 2024-yilda 7,2 mlrd. dollarga ko'tarilib, 27,7 foiz o'sdi va umumiy eksportdagi ulushi 22,7 foizdan 26,7 foizga chiqdi. Bu ko'rsatkich xizmatlar sohasi, xususan transport, turizm va axborot-kommunikatsiya xizmatlarining jadal rivojlanayotganini anglatadi.

Umuman olganda, O'zbekiston eksportida diversifikatsiya jarayoni davom etmoqda. Oltinning ulushi nisbatan kamaygan bo'lsa-da, oziq-ovqat, kimyo va xizmatlar sektori barqaror o'sish sur'atlarini namoyon qilmoqda. Bu esa iqtisodiyotning yangi tarmoqlari hisobiga eksportni kengaytirish yo'nalishida muhim natijalardir.

O'zbekiston sanoat mahsulotlari eksportini kengaytirish bo'yicha izchil siyosat yuritmoqda. So'nggi yillarda mintaqaviy transport koridorlarini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikda yangi yo'laklarni ishga tushirish va bojxona jarayonlarini soddalashtirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Toshkent – Andijon – O'sh – Irkeshtom – Qashqar" transport yo'lagi, shuningdek, Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'li loyihalari eksport logistikasida uzluksizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Milliy miqyosda logistika markazlarini tashkil etish, zamonaviy omborxonalar va transport-logistika klasterlarini rivojlantirish sanoat mahsulotlarini tashqi bozorlarga tez va sifatli yetkazib berishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, "raqamli bojxona" loyihasi eksport jarayonlarini tezlashtirish va shaffoflashtirishda muhim mexanizm bo'lib qolmoqda.

Jahon amaliyotida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlashda Yevropa Ittifoqi davlatlari va Sharqiy Osiyo mamlakatlarining yondashuvlari alohida ahamiyat kasb etadi. Yevropa mamlakatlari multimodal transport tizimlari orqali eksport jarayonlarini samarali yo'lga qo'ygan bo'lsa, Xitoy va Janubiy Koreya raqamli texnologiyalar yordamida logistika zanjirlarini yuqori darajada integratsiya qilgan. Ushbu tajribalar O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, mintaqaviy hamkorlik asosida transport yo'laklarini kengaytirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish orqali eksport logistikasini mustahkamlash imkonini beradi.

Logistika zanjirining uzluksizligi faqatgina nazariy tushuncha emas, balki amaliy mexanizmlar orqali ta'minlanadigan jarayondir. Bu jarayonda ishlab chiqaruvchi korxonalar, transport kompaniyalari, bojxona organlari va davlat idoralari o'rtasida uzviy hamkorlik zarur. Shu bois, logistika siyosati strategik boshqaruv tamoyillariga asoslanishi, xalqaro standartlarga moslashtirilishi va innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilishi lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini mustahkamlash va tashqi bozorlardagi mavqei oshirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Logistika tizimining barqarorligi nafaqat mahsulotlarni o'z vaqtida va sifatli yetkazib berish imkonini beradi, balki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, eksport hajmini kengaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bois, logistika zanjiri milliy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanishi zarur.

Mazkur sohani rivojlantirishda transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, multimodal tashish imkoniyatlarini kengaytirish va mintaqaviy transport koridorlarini rivojlantirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, "raqamli bojxona" tizimlarini keng joriy etish hamda xalqaro standartlarga mos axborot almashinuvi mexanizmlarini yaratish logistika jarayonlarini tezlashtirish va shaffoflashtirishda katta samara beradi.

Kelgusida eksport logistikasi samaradorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalar, jumladan sun'iy intellekt va blockchain asosidagi boshqaruv tizimlarini joriy etish, risklarni diversifikatsiya qilish hamda "yashil logistika" konsepsiyasiga mos ekologik toza transport yechimlarini keng qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishlarda davlat siyosati, xususi sektor tashabbuslari va xalqaro hamkorlik uyg'unlashgan holda rivojlanishi, sanoat mahsulotlari eksportining barqarorligini ta'minlovchi mustahkam tizim yaratishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Porter M. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 1985. – 557 p.
2. Christopher M. Logistics and Supply Chain Management. – London: Pearson Education, 2016. – 347 p.
3. Rodrigue J-P., Comtois C., Slack B. The Geography of Transport Systems. – New York: Routledge, 2020. – 456 p.
4. Waters D. Global Logistics: New Directions in Supply Chain Management. – London: Kogan Page, 2019. – 512 p.
5. Chopra S., Meindl P. Supply Chain Management: Strategy, Planning, and Operation. – Boston: Pearson, 2019. – 624 p.
6. Coyle M. Transport Economics. – London: Kogan Page, 2011. – 437 p.
7. UNCTAD. Review of Maritime Transport 2023. – Geneva: United Nations, 2023. – 160 p.
8. OECD. Logistics and Supply Chain Innovation for Sustainable Development. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 212 p.
9. World Bank. Connecting to Compete 2023: Trade Logistics in the Global Economy. – Washington D.C.: World Bank, 2023. – 112 p.
10. Мейлиев О.Р. Налоговые факторы экономического развития регионов. – Экономика и бизнес: теория и практика, 2017. – 163 с.
11. Эгамбердиев Б. Минтакавий интеграция шароитида логистика тизимининг ривожланиши. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2019. – 214 б.
12. Sheffi E. The Resilient Enterprise: Overcoming Vulnerability for Competitive Advantage. – Cambridge: MIT Press, 2005. – 336 p.
13. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi hisobotlari // [stat.uz](https://stat.uz)



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>